

## O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

**Boliyev Azamat**

Toshkent tumani 1-son

Kasb-hunar maktabi

Ona tili fan o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining muallifi, Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom kabi badiiy ijodkorlar o‘lmas ijodining davomchisi Abdulla Oripov adabiyotga yangicha badiiy tafakkur olib kira olgan shaxsdir. Bolaligi Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ining tor ko‘chalarida kechgan. Bu buyuk yozuvchi Abdulla Qahhor hamda Oybekning akademik rahbarligida ijodini nafaqat o‘zbek xalqi, balki qardosh va dunyo davlatlari ta’sirlanib, ilhomlanib, to‘lqinlanib maroq bilan mutolaa qiladigan meros qoldirgan. "O‘zbekiston SSR Xalq shoiri" hamda "WIPO Creativity Award" oltin medali bilan mukofotlangan. O‘zbekiston qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri.

**Kalit so‘zlar:** she’riy to‘plam, tarixiy-adabiy jarayon, drama, ocherk, publisistik maqola.

### KIRISH

1941-yilning 21-martida dunyoga kelgan yosh Abdulla o‘zi haqida deydi: Qo‘ng‘irtov etagiga o‘rnashgan bo‘lib, oqar suv taqchil bo‘lsa-da, seryomg‘ir kelgan yillarda ko‘kat-u maysalarga ko‘milib qoladigan keng joy edi. Bu haqida shoirning o‘zi shunday yozadi: "Ayniqsa, bahor paytlarida bu yerlarga yog‘in ko‘p tushar, Qo‘ng‘irtov etaklari ming xil o‘t-o‘lan, chuchmoma-yu qizg‘aldoqlar bilan, quyonto‘pig‘-u ismaloq bilan, karrag-u hazorisfand bilan, qo‘zigullar bilan qoplanar, tevarak-atrof jannatiy bir manzara kasb etardi. Sel suvlari to‘planib qolgan kichik-kichik ko‘llarni qoq deyishardi. Uning toza suvini odamlar tashib ichishar, bola-baqra chuchmomay-u ismaloq, zamburug‘ terib, Qo‘ng‘irtov etaklarida kunlarini kech qilar edi".

A.Oripov o‘zbek she’riyatiga o‘tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida kirib keldi. U dastlabki she’rlaridan boshlab milliy she’riyatda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo‘lida ijod qildi; turmushda paydo bo‘la boshlagan yangicha qarashlar, kishilarning ruhiy olamidagi

yevrilishlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo'lgan ehtiyoj A.Oripov she'rlarining g'oyaviy mundarijasini belgilab berdi.

Umuman, A.Oripovning she'r va dostonlarida olg'a surilgan ma'naviy muammolar mustaqillik davrida, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etib, shoirning xuddi shu masalalar tasvirida o'z davriga nisbatan (ularning aksari 90-y.larga qadar yozilgan) ilg'orlab ketganini namoyish etdi. Uning ijodida, bir tomondan, G'afur G'ulom lirikasiga xos falsafiylik ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, Hamid Olimjon she'rlariga xos musiqiy ravonlik va badiiy soddalik aks etib turadi. Mazkur 2 manba A.Oripov she'rlarida o'zaro tutashgan holda orifona she'riyatning asosiy xususiyatlarini ifodalab keladi.

Buyuk yozuvchi faqatgina nazmda ijod qilib qo'ymay, balki u tarjimashunoslik bilan ham shug'ullangan. Abdulla Oripov jahon adabiyoti durdona asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda ham samarali mehnat qildi. U Dante «Ilohiy komediya»sining «Do'zax» qismini, A. S. Pushkin, N. A.Nekrasov, T. G. Shevchenko, L. Ukrainka, R. Hamzatov, Q. Quliyev va M. Bayjiyev asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O'z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbay-jon kabi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 1196 Abdulla Oripov ijodining naqadar qimmatli ekanligini birgina "Sohibqiron" dramasi orqali ta'riflamoqchiman. Oddiyginaso'zlardaemas,rangli bo'yoqlarda, real hayotiy voqea-hodisalar orqali sohibqiron hayotidan parcha tasvirlangan. Asarda Amir Temur janglarda emas, balki ko'proq o'ylar girdobida aks ettiriladi. Asarda Temurning murakkab tabiati uning Amir Husayn, sulton Boyazid, amirlar, o'g'illariga munosabatini ko'rsatish mobaynida yorqin aks etgan. Amir Temur tajribali hukmdor va o'ychil faylasuf sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni: „Mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar“, — deya belgilaydi.

To'liq ishonch bilan aytish mumkinki, Abdulla Oripov o'zbek adabiyotini lirik poema janri bilan boyitdi. Bu uning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan ulkan hissasidir. Lirik poema an'anaviy poemadan (dostondan) fabulasi, syujet tizimi, voqealar, ularda ishtirok etuvchi personajlar yo'qligi bilan farq qiladi. Lekin unda lirik qahramon obrazi bor. Ko'pincha lirik qahramon obrazi muallifning ayniyatidir. Ammo har doim ham emas. Lirik poemada syujet unsurlari, biror voqeani tasvirlovchi, bayon etuvchi ayrim epizodlar uchraydi. Ular lirik qahramon fikrlari va tuyg'ularini badiiy-mantiqiy asoslash, ifodalash uchun kerak. Bundan tashqari, lirik poemada, she'rdan farqli, dramatik holat, qahramon kayfiyati, tuyg'ulari, fikrlari shunchaki ifodalanmaydi, balki rivojlantiriladi. Tuyg'u, g'oya ifodasi kulminatsion nuqtasiga chiqadi, yechimini topadi. Obrazlar, fikrlar ko'lami va tadriji she'r doirasidan chetga

chiqadi. Shu sababdan bunday yo‘nalishda yozilgan asarni katta she‘r emas, kichik lirik poema deb atash ma‘qu. Bundan tashqari, Dramatik doston o‘zbek adabiyotida Abdulla Oripov ijodi tufayli mustahkam o‘ringa ega bo‘ldi. Balki qo‘lyozmasi yo‘qolib, nashr etilmay qolgan Usmon Nosirga bag‘ishlangan she‘riy romani, Madaminbekka bag‘ishlangan asarida tarixiy voqealar talqin qilinishi, bayon qilinishida qo‘llanilgan liro-epik uslub o‘zbek adabiyotida bu janrlar ham mustahkamlanishi va rivojlanishiga katta hissa bo‘lib qo‘shiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlab o‘tishim keraki, Abdulla Oripov she‘riyati, xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan e‘tirof etganidek, o‘zbek poeziyasida muhim o‘ringa, katta salmoqqa ega bo‘lgan she‘riyatdir. Uning she‘riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so‘ylash, insonning rangin tuyg‘ularini rassomona ko‘z bilan ilg‘ab, musiqiy misralarda ifodalash, uning she‘riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg‘unligi – shoir she‘rlarining takrorlanmas, o‘ziga xos xususiyatlaridandir. Chindan ham Abdulla Oripovning she‘rlari mohiyat e‘tibori bilan voqe bo‘lgan she‘rlardir. Biz uchun, “shoir bir yurt” bo‘lgan O‘zbekiston uchun shoir ham, uning she‘rlari ham hamisha aziz va ardoqlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Sharafiddinov O. She‘riyat — qalb yolqini. „Hayot bilan hamnafas“ kitobida. Toshkent. Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1984.
2. Karimov N. va boshqalar. 20 asr o‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O‘qituvchi“, 1999.
3. Qo‘shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma‘naviyat“, 2000.
4. Ibrohim G‘afurov. Yurak-alanga. — G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1979.
5. N. Rahimjonov. Qalbning to‘rt fasli. – “O‘zbekiston madaniyati” gaz., 1979 yil 28 avgust.
6. Sh. Homidiy va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. — “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1970.